

Fanlar akademiyasi RASMIY MUNOSABATI

Joriy yil 23-mart kuni "Mahalla" telekanalining "Minbar" tok-shousida "Bugungi o'zbek olimlari kimlar? Ular nimalar bilan shug'ullanayapti? Ko'zga ko'ringan ishlar qilayotgan olimlar, ularning ishini amalga oshirish uchun nimalar va qanday yordam kerak?" kabi savollarga tegishli mutasaddi tashkilotlar vakillari javob berishdi. Jumladan, ko'rsatuvda biolog-olim Baxtiyor Rasulovning ilmiy laboratoriyalarni jihozlash masalasidagi fikri qirqib olinib, ijtimoiy tarmoqlarda turli bahslarga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 1-noyabrdagi "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3365-sonli qarori asosida FA ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasi bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda.

Jumladan, 2021-yilda Davlatimiz Rahbarining 2020-yil 28-dekabrdagi "2021 - 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4936-sonli qarori asosida FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3365-sonli qarori asosida Institut tomonidan kerakli asbob-uskunalar xarid qilish uchun talabnama hujjatlar to'plami kechiktirilib shakllantirilgan va Innovatsion rivojlanish vazirligiga kiritilgan. Hozirda Institut talabiga asosan kerakli laboratoriya jihozlari ro'yxati va hujjatlar Tender komissiyasiga taqdim etilgan.